

INSONIYATNING MA'NAVYIY-MADANIY TARAQQIYOTIDA YANGI SAHIFA



Sara NOSHADI, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari:

— O'zbekiston YUNESKOning Bosh konferensiyasini o'tkazishni taklif etdi va oxirgi qirq yil ichida mazkur nufuzli tadbiri Parijdan tashqarida o'tkazishga jur'at etgan ilk davlatga aylandi. Bu haqiqatan ham tarixiy qaror bo'lib, ikki yil avvalgi sessiyada barcha a'zo davlatlar tomonidan yakdillik bilan qo'llab-quvvatlandi.

YUNESKO uchun ko'p yillar davomida konferensiyani Parijdan tashqarida o'tkazish deyarli imkonsizdek ko'ringan edi. Ammo, bugun biz buning amalga oshganini ko'rmuqdamiz — bu O'zbekistonning tashabbusi va qat'iyati tufayli ro'y berdi. Shu o'rinda yana bir fikrni aytib o'tmoqchi edim. Samarqand o'zining ko'lami, muhiti, go'zalligi va uyushqoqlik darajasi bilan hammani lol

qoldirdi. Hatto, aytish mumkinki, bu yerdagi tashkilotchilik Parijdagidan ham yuqori. E'tiborli jihati, biz O'zbekiston hukumati bilan madaniy merosni asrash va targ'ib qilish sohasida yaqin hamkorlikdamiz. Albatta, bu yo'nalishning markazida Samarqand turibdi. Madaniyat sohasida O'zbekiston yuqori darajadagi tashkilotchilik va ulkan shijoat bilan o'z merosini jahon miqyosida namoyish etmoqda — bu borada Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamda boshqa davlat tuzilmalari faol ish olib borishmoqda.

Faoliyatimizning asosiy yo'nalishi madaniy merosni asrash va muhofaza qilishdir. O'zbekiston Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida madaniyat sohasiga ajratilayotgan mablag'lar bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu esa

mamlakatning o'z tarixi va madaniy o'ziga xosligi qimmatini chuqur angelayotganidan darak beradi.

Hozirda YUNESKO O'zbekistonda eng yirik loyihalardan birini amalga oshirmoqda — bu loyiha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda o'qituvchilar malakasini oshirishga qaratilgan. Maqsad — ta'lim sifati va sifatli pedagogik tayyorgarlikni ta'minlashdir. Bundan tashqari, YUNESKO Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda kasb-hunar ta'limi tizimini modernizatsiya qilish ustida ishlamoqda. Ushbu tashabbus bir necha yil avval boshlangan bo'lib, bugungi kunda faol rivojlanmoqda. Biz O'zbekiston hukumati bilan madaniy merosni asrash borasida ham yaqin hamkorlik olib boryapmiz.



JAMOAT TRANSPORTIDA NAQD PUL ISHLATILMAYDI

Samarqand shahar jamoat transportida to'lov tizimi to'liq naqd pulsiz shaklga o'tishi haqida xabarlar berib kelinmoqda. Bu yo'lovchilarga qulay va zamonaviy xizmat ko'rsatish yo'lidagi muhim qadamdir.

Ayni paytda, shahar avtobus bekatlarining 80 foiziga to'lov terminalari o'rnatildi.

Sizda ATTO transport kartasi yoki bank plastik kartalari bo'lsa, bir martalik chipta xarid qilish shart emas.

Bugungi kunda yo'lovchilarga transport kartalari, bank kartalari orqali, mobil ilovalar yordamida to'lov qilish kabi zamonaviy usullar taqdim etilgan.

Siz jamoat transportida elektron to'lov usulini tanlash orqali ham naqingizni, ham vaqtingizni tejashingiz mumkin.

"Samarqandyo'lovchitrans" DM axborot xizmati

VILOYAT ARALASH JANG SAN'ATLARI ASSOTSIATSIYASIGA RAIS SAYLANDI

Samarqand shahrida viloyat aralash jang san'atlari assotsiatsiyasining navbatdagi kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i Tohir Aripov, aralash jang san'atlari assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'limi a'zolari, sport muassasalari rahbarlari va trenerlar ishtirok etdi.

Dastlab joriy yilning 10 oyi davomida aralash jang san'atlarini rivojlantirish va ommalashtirish borasida amalga

oshirilgan ishlar xususida hisobot berildi.

Shundan so'ng viloyat aralash jang san'atlari assotsiatsiyasi raisi va uning o'rinbosarlari saylandi. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i Tohir Aripov assotsiatsiya raisligiga hamda Zafar Salimov assotsiatsiyaning ijrochi direktorligiga bir ovozdan ma'qullandi.

Yig'ilishda viloyatda aralash jang san'atlari sport turini rivojlantirish va ommalashtirish borasida amalga oshiriladigan ishlar va chora-tadbirlar belgilab olindi.

• Dildagi gaplar

OBODLIK — CHAROG'ONLIK

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad eng avvalo, xalq farovonligini oshirish, yurt obodonligini ta'minlashdir.

Islohotlar natijasida qurilishlar ko'lami kengaymoqda. Ko'chalar, bog'lar obod bo'lmoqda, son-sanoqsiz uy-joylar, madaniy-maishiy inshootlar kun sayin qad rostlamoqda. Endilikda, falon joyda bir maktab yoki bog'cha, ko'p qavatli uy, minglab insonlarga xizmat ko'rsatuvchi maishiy obyektlar ishga tushirilishi haqidagi xabarlar oddiygina holatda qabul qiladigan bo'lib qoldik. Negaki, barcha o'zgarishlarni Prezidentimiz tomonidan o'rta tashlanayotgan, ijrosi ta'minlanayotgan islohotlar natijasi sifatida qabul qilishga odatlandik. Qaysi sohaga e'tibor qaratmang, ko'ngilni xush qiladigan, dilda faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otadigan yangiliklarning guvohi bo'lamiz.

Har to'kisda bir ayb deganladidek, qurilish, obodonlashtirish, xonadonlardagi sarishtalikka ta'minlashda ham kamchiliklarimiz ko'zga tashlanib qolmoqda. Yoshligimizda ota-onamiz oilada kamol topayotgan biz, qizlarga kimning hovli supurishi, kimning suv sepishi, boshqa birovning esa darvoza oldini tartibga keltirishdek vazifalarni taqsimlab berishardi. Qaysi birimiz vazifani ko'ngildagidek bajarmasak, yaxshigina dakki eshitardik va keyingi safar bu xatomizni takrorlamalikka



harakat qilardik. Ana shu oilaviy an'anaga bugun ba'zan e'tibor qaratmayotganligimizni ham unutmaylik. Prezidentimiz tomonidan yaqinda o'tkazilgan mahalla tizimidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish hamda joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishda mahallalar, qurilishlar, ko'chalar atrofidagi saranjom-sarishtalik, ko'cha va xiyobonlarda tozalik-ozodalikka yetarli darajada e'tibor berilmayotganligi haqidagi e'tirozlarini eshitib, o'ylanib

qoldim. Nega, har birimiz e'tibor berishimiz lozim bo'lgan, amal qilish farzga aylangan burchimizni endi Yurtboshimiz siz va bizga eslatishi kerak?! Ayniqsa, davlatimiz rahbarining tozalik va ozodalik oyligini o'tkazish haqidagi tashabbusi yurt uchun xayrli, fuqarolar uchun esa ... nomusli emasmi?

Yurtimizda tozalik-ozodalik, sarishtalikka e'tiborni faqatgina bir oyga mo'ljallamasligimiz zarur. Negaki, bu ishni har kuni muntazam ravishda bajarishimiz shart.

Sarvara ABDURAHMONOVA



"C5+1" SAMMITI: YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI

Davlatimiz rahbari AQSh Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSh yetakchilarining "C5+1" formatidagi sammitida ishtirok etish uchun Vashington shahriga jo'nab ketdi.

Albatta, tashrif dasturida bir qator muhim masalalar o'rin olgan. Ammo, o'z navbatida o'quvchida haqli savol tug'ilishi tabiiy — bu o'zi qanday sammit va undan O'zbekiston, qolaversa, Markaziy Osiyo uchun qanday naf yoki manfaat bor?

Avvalo qayd etish lozim, O'zbekiston bugun tashqi siyosatda muvozanatli yo'lni tanlagan. Bir tomondan qo'shni davlatlar bilan hamjihatlik, ikkinchi tomondan global hamkorlar — AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlari bilan ochiq muloqot.

"C5+1" formati aynan shu siyosiy yo'lining amaliy ifodasi bo'lib, O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi nufuzini yanada mustahkamlashi bilan ahamiyatli.

MARKAZIY OSIYO — MUSTAQIL MINTAQA SIFATIDA

Aslida mintaqa Rossiya, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi manfaatlarini kesishgan hududlardan biri hisoblanadi. Ularning har biri mintaqada o'z manfaatlariga ega. Tarixiy jihatdan mintaqa

100 yildan ko'proq davomida an'anaviy tarzda Rossiya ta'siri ostida bo'lib keldi. Sovet ittifoqi parchalangandan so'ng mintaqada Rossianing ta'siri bir oz cheklanganidan so'ng qo'shni Xitoy Shanxay hamkorlik tashkiloti orqali o'z iqtisodiy va siyosiy ustunligini namoyish eta boshladi. O'z navbatida, Yevropa Ittifoqi va AQSh ham mintaqaga katta qiziqish bildirib kelmoqda.

Umuman, Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat ishtirokidagi "C5+1" formati AQSh, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Yaponiya, Turkiya, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan yo'lga qo'yilgan.

Aslida bu format ilk bor Yaponiya tomonidan 1997-yilda taklif qilingan. O'shanda Yaponiya Markaziy Osiyoda mintaqaviy muloqot uchun platforma yaratishni ilgari surgan.

Avval boshdanoq faqat bitta mamlakatga qaratilmagan bu format Markaziy Osiyo mamlakatlari kompleks yondashuvga asoslangani bilan e'tiborli bo'ldi. U dunyoning yangi mintaqasi — Markaziy Osiyo uchun buyuk davlatlar bilan muloqotda siyosiy mavqei va iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun mos, deb hisoblagan.

(Davomi 3-betda)

• Munosabat

• Zamonaviy texnologiyalar


SUN'IY INTELEKT TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHINI BOSHLAB BERMOQDA

21-oktabr kuni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videosektor yig'ilishni katta qiziqish bilan kuzatdim.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek haqiqatdan ham bugun sun'iy intellekt texnologiyalari kirib bormagan birorta soha qolmayapti. Dunyo iqtisodiyotida sun'iy intellekt hajmi yil sayin ortib bormoqda. O'zbekistonda ham bu bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha alohida qaror qabul qilinib, sohaning huquqiy asoslari yaratildi hamda qisqa vaqt ichida davlat xizmatlari, bank-moliya, jamoat xavfsizligi, transport kabi yo'nalishlarda ko'plab pilot loyihalar ishga tushdi.

Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan o'tgan yili yurtimizda tasdiqlangan Sun'iy intellektni 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi, Raqamlashtirish vazirligida bu soha bilan ishlaydigan alohida markazning tashkil etilgani o'z samarasini berib, bir yil ichida mamlakatimizning sun'iy intellektga tayyorgarlik bo'yicha xalqaro indeksda 17 pog'ona yuqorilgani, Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egallagan barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda endilikda vazirlar va tarmoq



rahbarlarini raqamlashtirishga mas'ul o'rinbosarlari bir vaqtni o'zida sohada sun'iy intellektni rivojlantirishga ham javobgar bo'lishini, shahar va tumanlarda ham hokimlarning raqamlashtirish va sun'iy intellekt bo'yicha maslahatchisi lavozimi kiritilishini, vazirlik va hududlarda sun'iy intellektni joriy etish holatini baholaydigan reyting tizimi ishga tushirilishini ma'lum qildi. Albatta, kuzatilayotgan bu yangiliklar sohadagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Prezidentimiz yig'ilishda dunyoda sun'iy intellektga talab ortib borayotgan hozirgi davrda raqobatdosh bo'lish uchun 3 ta eng asosiy masala — infratuzilma, ochiq ma'lumotlar va kadr tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish zarurligiga urg'u qaratdi.

Zamonaviy super-kompyuter klasterlari va data-markazlarni ko'paytirish zarurligini takidlab,

bu yil 16 ta super-kompyuter sotib olish uchun 50 million dollar ajratilishini, keyingi yil bu mablag' 2 karra oshirilishini bildirdi.

Sun'iy intellekt infratuzilmasiga sarmoya kiritadigan investorlarga imtiyozlar berilishi, import uskunalari bojxona to'lovidan ozod etilishi ko'rsatib o'tildi. O'lis hududlarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlash uchun keyingi yildan "sputnik internet" operatorlari faoliyati yo'lga qo'yilishi, ularning besh yilga yer, mol-mulk, foyda va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi belgilandi.

Yig'ilishda shuningdek, Sun'iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun ular, avvalo, o'zbek tilini mukammal darajada tushunishi zarurligi, buning uchun o'zbek tilidagi adabiyotlar, ma'lumotlar, maqolalar, hisobotlar, ilmiy ishlarni raqamlashtirish, sun'iy intellekt milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni o'zida ifodalay

olishi uchun "O'zbek tili korpusi"ni yaratish zarurligi alohida qayd etib o'tildi.

Prezidentimiz sun'iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlashni eng avvalo maktablardan boshlash kerakligini, shu munosabat bilan keyingi o'quv yilidan "Informatika" fani o'quv dasturlariga sun'iy intellektga oid mavzular kiritilishi zarurligini bildirdi.

Yoshlarning sun'iy intellektdan foydalanishga doir g'oyalarni aniqlash va loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Bir million sun'iy intellekt yetakchisi" loyihasinga kengaytirilishi va bu bo'yicha milliy tanlov o'tkazilib, eng yuqori natija ko'rsatgan yoshlar, ularning ustozlari va ta'lim tashkilotlarining munosib rag'batlantirilishi sohaga bo'lgan qiziqishning yanada ortishiga xizmat qiladi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari bitta haqiqatni baralla aytdi. "Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga — sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'yimoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi".

Prezidentimiz tomonidan yig'ilishda sohaga oid belgilab berilgan vazifalarni vaqtda, astoydil bajara olsak, albatta, natijamiz yomon bo'lmaydi, O'zbekiston sun'iy intellekt sohasida ham xalqaro hamjamiyatda o'z o'rniga, o'z so'ziga ega bo'ladi.

Akbar AXTAMOV,
"Milliy tiklanish"
demokratik partiyasi viloyat kengashi raisi

Davrimizni mobil telefonlarsiz tasavvur etib bo'lmay qoldi. Yoshlar orasida bu zamonaviy qulaylikdan foydalanish darajasi shunchalik oshib ketdiki, endilikda ta'lim-tarbiya jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Mobil qurilmalar yordamida bilim olish imkoniyatlari kengaydi. Bu jarayonning ijobiy ta'siridir.

MOBIL TELEFONLARNING O'QUV JARAYONIGA TA'SIRI

Qurilmalar o'quvchilarga dars jarayonida zarur ma'lumotlarni tezda topish, elektron darsliklardan foydalanish, turli ta'limiy ilovalar orqali bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, til o'rganishda turli mobil ilovalar orqali keng imkoniyatlar yaratilgan. Test dasturlarini yechish, onlayn kurslar yoki video darslar o'quvchilarga qo'shimcha manba sifatida yordamga kelmoqda. Shuningdek, mobil telefonlar orqali masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari ham ortmoqda. Ayniqsa, pandemiya paytida bu qurilmalar o'quvchilarning uzviy ta'lim olishini yo'lga qo'yishda katta qulaylik yaratdi.

Shu bilan birgalikda mobil telefonlardan uzluksiz foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini pasaytiradi, ularni chalg'itib akademik natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dars vaqtda ijtimoiy tarmoqlarga kirish, o'yinlarga chalg'ish yoki suhbatlashish bilan mashg'ul bo'lish holatlari kengaymoqda. Bu holat o'qituvchi bilan interaktiv aloqaning susayishi va bilimlarning yuzaki o'zlashtirilishiga sabab

bo'ladi. Ko'p vaqtni mobil qurilmaga tikilish bilan o'tkazish esa ko'rish qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladi. Uyuq buzilishi, ruhiy charchoq muammolari kuchayadi. Internetda vaqt o'tkazish, ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy bosimlar o'quvchilarda stress, ishonchsizlik yoki psixologik muammolarga duchor bo'lishi mumkin.

Mobil telefonlar zamonaviy ta'lim vositasi sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida keng ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida keltirilganidek, qurilmalarning ham ijobiy, ham salbiy ta'siri bordir. Ijobiy ta'sirdan samarali foydalanish yo'lida ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda amaliy aloqalarni yo'lga qo'yishlari talab qilinadi. Mobil texnologiyalardan maqsadli, o'z o'rnida va me'yorida foydalanish madaniyatini shakllantirish bu boradagi dolzarb vazifalardan biridir. Bu talab ijrosi ta'minlansa, texnologiyalar samaradorligi va ta'lim ta'sirchanligi yanada samarali bo'ladi.

Diifuz UMIROVA,
TDIU xorijiy tillar kafedrasini katta o'qituvchisi

FORMA TA'LIM SIFATINI SOYADA QOLDIRMOQDA (MI?)

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyodagi sanoqli sohada ta'lim beruvchi oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lgan. Uzoq yillik tarix va katta tajribaga ega institutda zamonaviy talablarga mos islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu yerda xizmat ko'rsatish va servis sohasi uchun ham oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanayotgani ham fikrimiz isboti bo'la oladi. Biz ayni yo'nalish rahbari — servis fakulteti dekani Olim PARDAYEV bilan bir qator masalalarda suhbatlashdik.

— Olim Mamayunusovich, so'nggi yillarda institutda ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Kredit-modul tizimi joriy etilgani ham yangiliklar orasida alohida ajralib turadi. Aytinch, tizim kutilgan natija beryaptimi?

— Avvalo qayd etish lozim, kredit-modul tizimi joriy etilgach, institutimizda ta'lim sifati sezilarli darajada oshdi. Eng muhimi, bu tizim talabani o'quv jarayonining markaziga qo'ydi. Endi talaba faqat darsda eshitganini yodlab emas, balki, mustaqil izlanib, o'qib, o'z fikrini shakllantirishga o'rganmoqda.

Har bir fan bo'yicha baholash bosqichma-bosqich olib borilgani sababli, talabalar yil davomida o'z ustida ishlashga majbur bo'lmoqda. Bu esa ularning mas'uliyatini, intilishlarini va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini kuchaytirayapti. Natijada bugungi talaba mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishga tayyorlanmoqda. Shu jihatdan, kredit-modul tizimi biz kutgan natijani bermocda, deb bemalol ayta olaman.

— **Boya aytganimday, institutda o'zgarishlar ko'p bo'lyapti. Sizni eng faxrlantirgan yangilik qaysi?**

— Ha, so'nggi yillarda institutimizda juda katta o'zgarishlar bo'layapti. Meni eng ko'p faxrlantiradigani esa — ta'lim



jarayonining amaliyot bilan chambarchas bog'lanib borayotgani. Ayniqsa, "dual ta'lim" tizimini joriy etish orqali talabalar endi faqat auditoriyada emas, balki, real ish joylarida ham o'z kasbini chuqur o'rganmoqda.

Bu yondashuv ularning kasbiy mahoratini oshiradi, institutni tamomlagach ish topish imkoniyatini ancha kengaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorliklar ham faollashgan — xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar, chet ellik mutaxassislar ishtirokidagi mahorat darslari talabalar uchun katta tajriba maktabiga aylanoqda.

Quvonarlisi, bu o'zgarishlar natijasida yoshlarimizda o'ziga ishonch, tashabbuskorlik va kasbiga mehr yanada kuchaymoqda. Shu jihatdan, bu biz uchun haqiqiy yutuq.

— **Talabalar sizni "ko'p tinglaydigan rahbar", deb ta'riflashadi. Siz uchun talabani tinglash qanchalik muhim?**

— Rostini aytsam, bu ta'rifni eshitish

men uchun juda yoqimli. Chunki, men rahbar sifatida har doim shuni his qilaman: talaba — bu bizning ishimizning markazida turgan eng muhim inson. Agar, biz ularni tinglamasak, ularning fikrini inobatga olmasak, ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish mushkul bo'ladi.

Ikkinchi tomondan, men uchun talabani tinglash — bu shunchaki odob emas, balki, zarurat. Chunki, ko'p hollarda aynan talabalarning fikri, taklifi yoki tanqidi bizga yangi g'oya beradi, biror tizimni yaxshilashga turtki bo'ladi. Shu maqsadda fakultetda "Ochiq muloqot kunlari", "Talaba soati" kabi uchrashuvlarni muntazam o'tkazamiz.

Shunday holatlar bo'ladiki, talabalar tomonidan ilgari surilgan oddiy taklif keyinchalik butun fakultet faoliyatida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shu bois, ularni tinglash — bu nafaqat rahbarlik mas'uliyati, balki, institutimiz taraqqiyoti uchun eng muhim qadriyatdir.

— **Ta'lim muassasalarida tartib-intizom, kiyinish madaniyati albatta, muhim. Ammo, ayrimlar "forma talabi ba'zan talabning bilimiga bo'lgan e'tiborni soyada qoldiradi", deydi. Sizningcha, bu ikki omil o'rtasida qanday muvozanat bo'lishi kerak?**

— Juda o'rinni savol. Haqiqatan ham, ta'lim muassasasida tartib-intizom va kiyinish madaniyati masalasi doimo e'tibor markazida bo'lishi kerak. Chunki, bu faqat tashqi ko'rinish emas — bu insonning o'ziga, atrof-dagilarga va o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Talaba o'zini tartibli, mas'uliyatli shaxs sifatida his qilsa, bu uning o'qishga bo'lgan yondashuviga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Shu bilan birga, men doimo shuni ta'kidlayman: forma — bu intizom vositasi, lekin u hech qachon bilimning o'rnini bosa olmaydi. Bizning asosiy maqsadimiz — talabning ilmga bo'lgan qiziqishini oshirish, fikrlash doirasini kengaytirish.

Shuning uchun fakultetimizda muvozanatni saqlashga harakat qilamiz: talaba ozoda, tartibli, odobli bo'lishi kerak, ammo, shu bilan birga mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va bilimga chanqoq bo'lishi ham zarur. Menimcha, haqiqiy zamonaviy talaba ana shu ikki jihatni uyg'unlashtira olgan shaxsdir.

— **Yuqorida talabalar bilan ochiq muloqotlar o'tkazilishining ijobiy jihatlari sanab o'tdingiz. Ularning fikrini tinglash institut hayotiga qanday o'zgarish kiritgani haqida aniq misollar keltira olasizmi?**

— Ha, so'nggi yillarda servis fakultetida ochiq muloqot tizimini yo'lga qo'yganimiz juda yaxshi natijalar bo'ldi. Eng avvalo, bu muloqotlar oddiy yig'ilish emas — samimiy, yuzma-yuz suhbat shaklida o'tadi. Talabalar o'z fikrini bemalol ayta oladigan, muammosini ochiq muhokama qiladigan muhit shakllandi.

Natijada talabalarning faolligi sezilarli darajada oshdi. Ular endi muammolarni faqat aytish bilan cheklanmay, aniq taklif

va yechimlar ham berishmoqda. Masalan, dars jadvalini qulaylashtirish, amaliyot joylarini tanlash yoki elektron tizimlarni takomillashtirish kabi masalalarda ko'plab foydali g'oyalar aynan talabalar tashabbusidan kelib chiqqan.

Bundan tashqari, muloqotlar orqali biz talabalarning ehtiyojlarini, hayotiy muammolarini yanada chuqurroq tushunayapmiz. Eng quvonarlisi — bu jarayon rahbariyat bilan talaba o'rtasidagi masofani qisqartirdi. Endi talabalar dekanni o'z odami, deb biladi, his esa ularni nafaqat tinglaymiz, balki, har bir fikrini inobatga olishga harakat qilamiz.

— **Dekan sifatida, "muvaffaqiyatli bitiruvchi" deganda nimani tushunasiz?**

— Nazarimda, muvaffaqiyatli bitiruvchi — bu faqat yuqori baholar bilan institutni tamomlagan talaba emas. Eng avvalo, bu inson hayotda o'z o'rnini topa olgan, olgan bilimni amaliyotda qo'llay biladigan, mas'uliyatli va faol shaxsdir.

Bugungi kunda mehnat bozori juda dinamik, talablar tez o'zgarayapti. Shu sababli fakultetda talabalarni faqat nazariya bilan emas, balki, amaliy ko'nikmalar, jamoada ishlash madaniyati, muammoni mustaqil hal qilish va tashabbuskorlik ruhida tarbiyalayapmiz.

Eng ko'p quvontiradigani — bitiruvchilarimizning ko'pi o'z sohasida muvaffaqiyatga erishmoqda. Kimdir ish topgan, kimdir o'z biznesini yo'lga qo'ygan, kimdir xizmat ko'rsatish tizimida yangi g'oyalarni tatbiq etmoqda. Ular jamiyatga foyda keltirayotgan yoshlar — bizning eng katta natijamiz. Shu bois, men har bir talaba bilan suhbatda shuni aytaman: diplom — bu yakun emas, balki, yangi bosqichning boshlanishi. Agar inson institutda olgan bilimni hayotda to'g'ri ishlata olsa, o'z ustida tinmay ishlasa — mana, bu haqiqiy muvaffaqiyatli bitiruvchidir.

Muhammaddiyov NARINOV
suhbatlashdi.

"C5+1" SAMMITI: YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda)

O'ZARO MUNOSABATLARDA YANGI UFQ

AQSh mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarini xalqaro tizimda «S5+1» ahamiyatga ega bo'lgan mintaqada joylashgan davlatlar sifatida e'tirof etdi. 1991-yilda "Erkinlikni qo'llab-quvvatlash" qonunini, 1999-yilga kelib esa "Yangi Ipak Yo'li" strategiyasini qabul qilgan.

2015-yil 27-sentabrda esa BMTning Bosh Assambleyasi doirasida o'sha paytdagi AQSh Davlat kotibi Jon Kerri 5 ta Markaziy Osiyo davlati tashqi ishlar vazirlari bilan uchrashib, "S5+1" formatini tuzishadi. Mazkur formatning maqsadi AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari orasida mintaqaviy va global masalalarni muhokama qilish, deb belgilangan.

O'sha yil 1-noyabr kuni Samarqand shahrida mo'lib o'tgan uchrashuvda «S5+1» tuzilgani rasman tasdiqlandi. Mazkur uchrashuv yakunida Hamkorlik va sheriklik to'g'risida Qo'shma deklaratsiya qabul qilingan.

Mazkur hujjat savdo, transport, kommunikatsiya, energetika sohalarini rivojlantirish, mintaqa mamlakatlarida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, xavfsizlikning transchegaraviy tahdidlari (giyohvand moddalar, qurol, odam savdosi)ga, Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash, yadro qurollari tarqalishiga qarshi kurashish, madaniy-ma'rifiy sohada aloqalarni kengaytirish, inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik institutlarni mustahkamlash kabi dolzarb masalalarda hamkorlik qilishni ko'zda tutadi.

Shundan so'ng Markaziy Osiyo va AQSh vazirlari uchrashuvi muntazamlik kasb etdi. Shu davrga kelib, Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqil davlatchilikning ilk bosqichidan o'tib, global miqyosda o'z tarixi, madaniyati, qadriyatlarini bir bo'lgan yagona mintaqa vakillari sifatida namoyon qila boshladi. Washington taklif qilgan «S5+1» ko'rinishidagi maslahat mexanizmining muvofiqiyati esa ko'p jihatdan mintaqa mamlakatlarining hamkorlik tomon tobora kuchayib borayotgan intilishi mahsuli, deyish mumkin.

BIRINCHI YO SO'NGISI EMAS

Qayd qilingan format doirasida dastlab tashqi ishlar vazirlari uchrashgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan uning darajasi kengayib boryapti.

Xususan, 2023 yil 19 sentyabr kuni davlatimiz rahbari Nyu-York shahriga tashrif dasturiga muvofiq Markaziy Osiyo mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlari yetakchilarining "C5+1" formatidagi birinchi sammitida ishtirok etdi.

Tadbirda, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Jozef Bayden, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadiq Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovlar qatnashgandi.

O'shanda uchrashuv kun tartibiga muvofiq, savdo-iqtisodiy sheriklikni kengaytirish istiqbollari, "yashil" taraqqiyot, energetika xavfsizligini ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish, mintaqaviy xavfsizlik, terrorizm va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish sohalarida hamkorlik masalalari muhokama qilingan.

Uchrashuv yakunida mintaqa mamlakatlari va AQSh o'rtasidagi o'zaro anglashuvni yanada chuqurlashtirish va amaliy sheriklikni kengaytirish yuzasidan kelishuvlarga erishilgan.

"C5+1"NING FOYDASI NIMA?

Qayd qilinayotgan sammit yangi sarmoyalar va ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega. Negaki, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirayotgan bir paytda AQSh bilan hamkorlik investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Energetika, sanoat, IT va qishloq xo'jaligi sohalarida amerikalik kompaniyalari qiziqish bildirmoqda. Bu esa yangi ish o'rinlari va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

TRANSPORT VA TRANZITDA YANGI YO'LLAR

O'zbekistonning geografik joylashuvi — bu katta ustunlik. "C5+1" orqali muhokama qilingan "O'rta koridor" (Trans-Caspian Route) tashabbusi O'zbekistonga Yevropaga chiqishning yangi logistik yo'lini ochadi. Bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki, mamlakatning strategik ahamiyatini ham oshiradi.

ENERGETIKA VA EKOLOGIYADA HAMKORLIK

Toza energiya, quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya tejovchi texnologiyalar — bugungi kunda O'zbekiston uchun ustuvor yo'nalishlardan biri. AQSh bilan hamkorlik bu sohada innovasion loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi.

XAVFSIZLIK VA BARQARORLIK

Mintaqadagi tinchlik O'zbekiston uchun eng muhim masala. "C5+1" formati Afg'onistondagi vaziyat, chegara xavfsizligi va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Umuman, "C5+1" sammiti — bu shunchaki diplomatik tadbir emas. U Yangi O'zbekistonning o'zi o'rnini belgilab beruvchi muhim voqea.

XABARLARGA KO'RA ...

Qayd etilishicha, tashrif dasturiga muvofiq, Prezidentimiz AQSh Prezidenti Donald Tramp, Kongress Senati va Vakillar palatasi a'zolari, AQSh vazirlik va idoralari rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazadi.

O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarida yanada kengaytirish va mustahkamlash, shuningdek, Markaziy Osiyoning AQSh bilan mintaqalararo hamkorligini chuqurlashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Ishbilarmonlik dasturi doirasida AQShning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy institutlari rahbarlari ishtirokida uchrashuv va tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Tadbirlar yakunida qator ikki va ko'p tomonlama hujjatlar qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Y. MARQAYEV tayyorladi.



Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish – davr talabi

M a m l a k a t i m i z d a korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu illat nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki, fuqarolarning davlat organlari va moliya muassasalariga bo'lgan ishonchiga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish va uning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish

bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

"O'z sanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida ushbu islohotlar doirasida qat'iy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimizning joriy yil 21-apreldagi "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, bankda korrupsiyaga qarshi kurashish

bo'yicha alohida ichki nazorat bo'linmasi tashkil etilgan. U to'g'ridan-to'g'ri Bank kuzatuv kengashiga bo'ysunadi.

Bankda korrupsiya holatlarini aniqlash va ularning oldini olish, mehnat jamoasida murosasiz munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Viloyatdagi xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ham doimiy ravishda targ'ibot va profilaktika ishlari o'tkazilmoqda. Xodimlarga korrupsiyon harakatlarning huquqiy oqibatlarini, ularning bank sha'niga va shaxsiy faoliyatiga ta'siri haqida tushuntirishlar berib borilmoqda.

Shu bilan birga, bankda jarayonlarni raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim omilga aylandi. "SQB BUSINESS" va "SQB Mobile" dasturlari orqali mijozlar 24/7 rejimida xizmatlardan bankga tashrif buyurmasdan foydalanishmoqda. Bu inson omili ta'sirini kamaytirib, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlamoqda.

Korrupsiyaning oldini olish faqat nazorat choralari orqali emas, balki, xodimlar va mijozlarning huquqiy ongini oshirish bilan

yanada samarali bo'ladi. Shu bois, malakali mutaxassislar ishtirokida uchrashuvlar va seminarlar o'tkazilib, ularda halollik va qonunga sadoqat tamoyillari muntazam targ'ib etilmoqda.

Bank xodimlarining odoaxloq kodeksi va ichki qoidalarga rioya etishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilgan. Bank binolarida "Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik" shiorlari aks etgan maxsus stendlar va belgilar o'rnatilgan.

Shuningdek, korrupsiya yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida xabar berish uchun "ishonch telefoni", maxsus veb-forma va "Telegram" chat-bot orqali 24/7 rejimida murojaat qilish imkoniyati yaratilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida halollik va adolatni qaror toptirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Bank jamoasi faoliyatida ochiqlik va ishonch muhitini mustahkamlash yo'lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Farrux GAFAROV,
"O'z sanoatqurilishbank"
ATB viloyat bo'limi
korrupsiyaga qarshi
kurashish
guruhi xodimi

Перепланировка квартиры: можно или нельзя?

Часто у наших сограждан бытуют два полярно противоположных мнения на изменение планировки в многоквартирных домах: одни считают, что планировку менять ни в коем случае нельзя, другие тем временем спокойно сносят стены, из двухкомнатной делают трехкомнатную, выводят кухни на балконы и т.д. Где же истина? Кто из них прав? Об этом наш разговор с начальником отдела надзора за соблюдением правил технической эксплуатации многоквартирных домов и жилищного фонда областной инспекции по контролю в сфере строительства и жилищно-коммунального хозяйства Фуркатом КОЗОКБОВЫМ.

— Итак, кто же прав?
— Истина на самом деле лежит где-то посередине. То есть, в каких-то случаях менять планировку квартир можно, а в других — нельзя категорически.

— Начнем с того, это категорически запрещено.

— Строжайшие запреты касаются, прежде всего, несущих конструкций. Далее придомовые территории, коммуникационные сети и места общего пользования, технические подвалы и т.д. Почему нельзя трогать несущие конструкции, понятно: это приводит к нарушению безопасности здания, в том числе сейсмической устойчивости. То есть создает угрозу жизни жильцов. Что касается придомовых территорий, мест общего пользования, таких как подъезды, лестницы, лестничные площадки, подвалы, крыши и т.д., то они являются коллективной собственностью. И ни один человек не имеет права самовольно что-то делать с ними.

— А в каких случаях в квартире можно все-таки что-то менять?

— Менять можно ограждения, не являющиеся несущими конструкциями, перегородки. Подробнее об этом можно узнать во втором приложении постановления Кабинета Министров РУз «Об утверждении единых административных строительных регламентов в сфере строительства» от 22 апреля 2020 года №200. Рекомендую всем внимательно ознакомиться с этим документом. Там четко и ясно прописано, что можно делать, а что нельзя, и приводится порядок согласования перепланировки с соответствующими инстанциями.

Важно помнить: после изменений планировки вашей квартиры, она уже не будет соответствовать существующим кадастровым документам, и по существующим сейчас правилам надо будет оформлять кадастровые документы заново. Иначе вы не сможете продать квартиру. В настоящее время дважды в год многоквартирные дома проверяются управляющими компаниями именно на предмет соответствия квартир кадастровым документам, целостности несущих конструкций. Результаты проверок направляются в нашу

инспекцию.

— Часто возникают вопросы по поводу строительства легких конструкций на детских площадках, автостоянках, а также самовольного присвоения лестничных площадок жильцами, превращение квартир на первом этаже в магазины...

— Все эти объекты — места общего пользования, и строить там что-либо, занимать их самовольно категорически нельзя. В соответствии с пунктом 23 протокола поручений Главы нашего государства от 16 июля 2025 года №28, Генеральной прокуратуре, Министерству юстиции, агентствам кадастра и «Узбеккосмос» были даны указания выявлять и ликвидировать подобные нарушения закона, возвращая все в прежнее состояние.

Но до сих пор встречаются случаи, когда человек построил навес над своим автомобилем на общей автостоянке. Это тоже является нарушением прав других пользователей. Бывает, что люди занимают входы в подъездах. В советских домах, например, есть в подъездах отдельные помещения для мусора. Часто встречаются случаи, когда люди самовольно их занимают. Этого делать нельзя, как и занимать площадку перед лифтом.

Однако существует законный путь: помещение можно взять в аренду. Для этого человеку необходимо письменно обратиться в управляющую компанию. Решение принимается на общем собрании, на котором необходимо получить согласие не менее 51 процента всех жильцов дома на такую аренду. После изучения ситуации соответствующими органами выдается разрешение. Если жильцы первого этажа хотят открыть магазин или парикмахерскую, арендовать подвалы, где нет инженерных коммуникаций, для создания офиса, тут тоже, прежде всего, нужно согласие жильцов данного дома. Но это не касается подвалов, высота которых ниже 2 метров 20 сантиметров. Такие подвалы являются техническими, и их аренда запрещается.

— А можно ли, допустим, перенести кухню на балкон?

— Менять место кухонь, туалетов, ванн, душевых запрещено категорически. Это связано с дымоходами, вентиляционными шахтами, канализационными сетями, газопроводами, мусоропроводами и другими инженерными коммуникациями. Как правило, при планировке домов их расположение учитывается заранее, например, вентиляционная шахта с первого этажа до десятого идет вертикально в одном направлении. И менять это нельзя. Кроме того, такие изменения могут стать причинами пожаров и других чрезвычайных ситуаций.

— А какие меры ответственности предусмотрены к нарушителям?

— В марте сего года был принят Закон

№3РУ-1050 «О внесении изменений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с совершенствованием системы обеспечения сейсмической безопасности». Он ужесточил требования в этом вопросе, а именно усилил статью 159 Административного кодекса, которая подразумевала наложение штрафа на физических лиц в размере от 20 до 30 базовых расчетных величин. Сейчас же эта сумма составляет 50 БРВ. Соответственно, если юридические лица раньше платили штраф от 40 до 50 БРВ, то сейчас придется заплатить 100 базовых расчетных величин. При повторном нарушении закона в течение одного года уже установлена уголовная ответственность. Но я хочу подчеркнуть: для нас важно не карать или наказывать, а исправить положение, правонарушение. Если человек не знал, что менять планировку квартиры нельзя, то мы объясняем ему это и предоставляем время на исправление ситуации, то есть требуем вернуть все в прежнее состояние. Если человек не выполняет наших предписаний в указанный срок, то следует административ-



ное наказание в виде штрафа. Следующие меры воздействия для нарушителей — уже суд, далее — привлечение к уголовной ответственности.

— Можете привести статистику за этот год? Сколько человек нарушило закон, сколько получило взыскания?

— За девять месяцев текущего года нашим отделом были проверены 1 154 многоквартирных дома по области. Из них в 273 случаях были выявлены случаи нарушения закона. По категориям правонарушений можно увидеть такую картину: 64 случая касаются изменений несущих конструкций, 162 — строительства на придомовой территории, 10 — изменений коммуникаций общего пользования, 16 — присвоения мест общего пользования, нарушения несущих перегородок в подвалах. В 213 случаях мы добились ликвидации правонарушений. К остальным нарушителям применены меры взыскания. Возмещено в пользу государства 780 миллионов 120 тысяч сумов.

Беседовал Фуркат ТУРНИЯЗОВ

GID-TARJIMON— MADANIYAT, MA’NAVIYAT, TARIX TARG‘IBOTCHISI

• Sayyohlik tizimi uqlari

Davlatimiz, xalqimiz hayotidan chuqur o‘rin olayotgan sayyohlik tizimi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Sayyohlarga zamonaviy xizmat ko‘rsatish madaniyati va sifatini oshirishda gid-tarjimonlarning alohida o‘rni bor. Sayyohlikning bu jabhasi yurtimizga tashrif buyurayotgan har bir turistga xizmat ko‘rsatishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Yakka tartibdagi sayyoh yoki turistlar guruhini belgilangan joylar — aeroport, temiryo‘l vokzali, avtobekatlarda kutib olish, ularni dastlabki belgilangan manzil — mehmonxonalarga boshlab borish ularning zimmasidagi vazifadir.

Gid-tarjimonlar sayyohlar bilan dastlabki aloqani o‘rnatgach, bir manzildan dam olish yoki tunash maskaniga qadar yo‘l-yo‘lakay shaharning qaysi qismidan, ko‘chasiidan o‘tilayotganligi, bu manzillarda qanday diqqatga sazovor sayyohlik obyektlari joylashganligi haqida batafsil ma‘lumot beradi. Turistlarni qiziqtirgan tarixiy, madaniy jabhalarga oid savollar ham



ko‘pchilikni qiziqtirishi mumkin. Bunday holatga ilmiy, madaniy, tarixiy ma‘lumotlar bilan batafsil tanishgan holda tayyor turish zarur. Ana shu bosqichning o‘zida

har bir sayyohlik markazining salohiyati, imkoniyatlari namoyon bo‘ladi.

Soha xodimlari oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biri xorijiy tillarni mukammal

o‘zlashtirishdir. Samarqandga tashrif buyuradigan sayyohlarga asosan rus, ingliz, xitoy, koreys, nemis, fransuz tillarida xizmat ko‘rsatiladi. Bu jarayonda faqat ma‘lumotlarni yetkazish emas, balki, shaharning o‘tmishi va bugungi tarixini umumlashtirgan holda ma‘lumotlarni yetkazish zarur. Ana shunda sayyohlarda qadim shahar tarixi, madaniyati, xalqimiz urf-odatlari va ma‘naviyati haqida to‘laqonli tushuncha va xulosalar hosil bo‘ladi.

Sayyohlar oqimining kuchayishi ko‘p jihatdan gid-tarjimon xizmatining sifati, soha xodimlarining mahoratiga ham chambarchas bog‘liqdir. Xizmat sifati oshirilishi bilan sayyohlarning qadim makon haqidagi qarashlari ijobiy tomonga o‘zgaradi. Demak, tarixiy, madaniy ma‘lumotlarni lo‘nda, qisqa, tushunarli holatda sayyoh tilida amalga oshirish ham tizimda yangi ijobiy o‘zgarishlarga asos bo‘ladi.

Sayyohlik markazi hisoblangan shahrimizda gid-tarjimonlarning malakasini oshirish, ularni o‘qitish tizimi qat‘iy yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bir qator o‘quv kurslari tashkil etilgan. Doimiy tashkil etilayotgan amaliy seminarlar ham bu borada ijobiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bugun ushbu soha xodimlariga qo‘yilayotgan

talablardan biri zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Hayotning barcha jabhalarida keng qo‘llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlari gid-tarjimonlar faoliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mobil ilovalar, audio, virtual ekskursiyalar orqali sayyohlar o‘zaro bog‘lanmagan holda sayohat qilishlari mumkin. Biroq, jonli amaliyot gid-tarjimonlarning tajribasini boyitadi, sayyohlarga ma‘lum obyekt haqida ishonarli ma‘lumotlarni yetkazishga xizmat qiladi. Shuning uchun bugungi zamonaviy texnologiyalar hamda inson omilini uyg‘unlashtirish tizimini yanada kengaytirish davri yetib keldi. Bu tizim Samarqandda yo‘lga qo‘yilganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Til bilish darajasi, kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish imkoniyatlarining kengayib borayotgani ham soha xodimlariga qulaylik yaratmoqda.

Gid-tarjimonlar shahar tarixi, madaniyati haqida sayyohlarga jonli muloqot uyushtiruvchi, ta‘sirchan ma‘lumotlarni yetkazuvchi tizimning mas‘ul xodimlaridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa ular madaniyat, ma‘rifat, tariximiz targ‘ibotchilaridir.

Xurshida FAYZULLAYEVA, Registeron ansambli gid-ekskursovodi

AJDODLARI SAMARQANDLIK BO‘LGAN MALIKA IPARXON YOXUD XITOIY IMPERATORINING ARMONIGA AYLANGAN —

Tangri nazari tushgan bu yurtimizning ulug‘lari qayerlarda bo‘lmasin, doimo o‘zlarining faoliyatlarini bilan makondoshlarining buyuk hurmati va ehtiromiga sazovor bo‘lib kelishgan. Ajdodlari asli samarqandlik bo‘lgan, o‘zining chin e‘tiqodi va yoriga sadoqati bilan Chin imperatorini lol qoldirgan, Yevropa san‘at ahlining buyuk e‘tirofiga sazovor bo‘lgan, biz esa yaxshi bilmagan Iparxon haqida so‘z yuritmoqchimiz. E‘tiqod olamida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan bu ayol haqida 2007-yili Qashqarga ilmiy safar bilan borganimizda ma‘lumotlarga ega bo‘ldik.

Maxdumi A‘zam Kosoniy Dahbediy (Haqiqiy ismlari Sayid Ahmad ibn Mavloni Jaloliddin Xojagiy Kosoniy)ning vafotidan (1542-yil) keyin to‘ng‘ich o‘g‘li Imomi Kalon va kenja o‘g‘il xo‘ja Muhammad Isoq Vali Sharqiy Turkistonning asosiy diniy arboblari aylanishgan. Maxdumi A‘zamning kichik bekasi, Xo‘ja Muhammad Isoq Valining onalari asli qashqarlik aslzodalardan bo‘lib, qoraxoniylar davlatining asoschisi, Qashqar va Yettisuv orasida yashagan ko‘chmanchi turkiylar orasida islomning yoyilishida muhim o‘rin tutgan Sulton Sotug‘ Bug‘roxo‘n G‘oziyning avlodi bo‘lgan. Aynan shu holat Maxdumi A‘zam Kosoniy avlodlarining Yorkent xonligida muqim qaror topishiga asos bo‘lgan.

Xitoy Xalq Respublikasi Qashqar shahridagi Maxdumi A‘zamning avlodlariga mansub bo‘lgan Ofoqxo‘ja maqbarasining yana bir nomi Iparxon, deb ataladi. Maqbaradagi markaziy binoda Jahonxo‘janing bevasi, keyinchalik imperator Syanlunning suyuksini Iparxon ham dafn etilgan.

Xitoy Xalq Respublikasining Sinszyan-uyg‘ur avtonom rayoni tomonidan tarixiy yodgorlik sifatida qadrlanib, ziyoratgohga aylantirilgan mazkur naqshinkor maqbara Qashqar shahrining markazidan 5 kilometr shimol tomonda, Qo‘qon qo‘rg‘onida Oltin, deb nomlanuvchi mahallada joylashgan. Maqbara 1640-yilda qurilib, uning ichida Maxdumi A‘zamning 5 avlodiga mansub bo‘lgan 72 kishining qabri mavjud. Maqbaraga dastlab Ofoqxo‘janing otasi Muhammad Yusufxo‘ja dafn etilgan. Me‘moriy obida 1870 — 1877-yillarda piskentlik Yoqubbek Badavlatning Yetti shahar davlatida hukmronlik qilgan yillari qayta ta‘mirlangan va hozirgi ko‘rinishga keltirilgan. Maqbara bir qancha binolarning birikmasidan tarkib topgan. Qabrlar joy olgan asosiy binodan tashqari, u ta‘lim — tahsil olinadigan yana bir yirik binodan, bosh masjid, kirish darvozalarga yaqin bo‘lgan kichik masjid va minoradan iborat. Maqbaraning old qismida tiniq suvli hovuz va mevali bog‘ o‘rin olgan. Maqbara bosh binosining diametri 17 metr, balandligi 29 metr, old qismining uzunligi 39 metrni tashkil etadi.

Maxdumi A‘zamning ayniqsa, og‘a-inilar Burxoniddinxo‘ja va Jahonxo‘ja, Ofoqxo‘janing ukasi Mo‘minxo‘janing evarasi Alixo‘janing qizi

Iparxon kabilar Qashqardagi ijtimoiy-ma‘naviy hayotda nihoyatda muhim o‘rin tutishgan. Jumladan, Jahonxo‘ja Arshiy uyg‘ur fani, madaniyati, adabiyoti va san‘ati rivojiga katta hissa qo‘shdi. Davlat xizmatidan tashqari Jahonxo‘ja badiiy adabiyot uchun ham vaqt ajratib Arshiy taxallusi bilan ajoyib she‘rlar yozgan.

Ko‘p jihati bilan Alisher Navoiyga taqlid qilgan Arshiy Yorkent hokimi sifatidagi qariyb 20 yillik faoliyati davrida xalq obodonchiligiga, maorif taraqqiyotiga, maktab va madrasalar qurilishiga katta kuch va mablag‘lar sarfladi, mudarris va talabalarga o‘z hisobidan moddiy yordam berib, ma‘naviy rag‘batlantirdi.

Yurt va yorga sadoqat timsoliga aylangan Iparxon el orasida shunchalik mashhur bo‘lganki, u haqida nafaqat mahalliy adiblar, balki, ovropolik ijodkorlar ham ko‘plab kitoblar, roman va dostonlar, filmlar yaratishgan, uning surati esa go‘zallik timsoliga aylangan. Iparxon o‘z xalqining fidoyisi, madaniyat, adabiyot, san‘at homiysi sifatida bemisl obro‘ga ega bo‘lgan. U aslzoda bo‘lishidan qat‘iy nazar badiiy ijod bilan shug‘ullanishni, mumtoz qo‘shiqlarni kuylashni, raqs tushishni yaxshi ko‘rardi.

Iparxon 1754-yil 15-sentabrda Yorkentda tavallud topgan. Bir muddatdan so‘ng oilasi Qashqarga ko‘chib kelgan. Bu ayol haqida ijod qilingan badiiy asarlarning muhtasar bayoni shundan iboratki, Jahonxo‘janing bevasi Iparxonning go‘zalligi, ayniqsa undan doimo taralib turgan gullarning ifori Sin imperatori Syanlun ya‘ni qaytmas, ulug‘ nomi bilan hukmronlik qilgan Aysingyoro Xun Lining xayolini o‘g‘irlagan. Iparxonga g‘oyibona oshiq bo‘lgan imperator turli vositalar yordamida uni o‘zining Pekindagi saroyiga keltiradi. Shaxsan Syanlunning talabiga ko‘ra Iparxonga xitoycha Syanfey, ya‘ni, ifor taratdigan nomini berishib, saroydagilar uning qavmiga va urf-odatlariga katta hurmat va e‘tibor bilan qaraydigan bo‘lishadi. Biroq, Iparxon nafaqat imperatorni o‘z yoniga yaqinlashtiradi, balki, kiyimlarini kiyishda unga yordam beradigan kanizaklarning xizmatidan ham qat‘iy voz kechadi.

Xizmatchilarga esa imperatorlari haqida «Agar, menga, hatto, barmog‘ini tekkizsa, avval xanjarni uning yuragiga sanchaman, keyin o‘zimni o‘ldiraman», deb dag‘dag‘a ham qiladi. Bunday tahdididan Syanlun nafaqat g‘azabga keladi, balki, kuladi. Keltirilishicha, imperator jismoniy jihatdan juda kuchli bo‘lib, u Girin o‘rmonlarida bo‘lib o‘tgan ovlarning birida o‘z qo‘llari bilan, hatto, ayiqni ham qulatgan ekan.

Y o s h suyuksining ko‘nglini olish uchun uning derazasi oldida ona yurti Qashqar va Timur poytaxti sifatida Xitoyda mashhur bo‘lgan Samarqand madrasalari, muhiti aks etgan, hatto, bozorlari va turkiycha hammomi bo‘lgan "Van szya lou" nomini olgan kichik shaharchaning nusxasini yaratadi. M a n b a l a r d a keltirilishicha, XX asr boshlarida ham Pekinning Chanan ko‘chasida bu majmuani ko‘rish mumkin bo‘lgan. Bu ham yetmaganidek,

imperator o‘sha vaqtda saroyiga tashrif buyurgan milanlik missioner rassom Djuzeppe Kastilyonega yog‘li bo‘yoqlarda Qashqar va Samarqand manzaralarini chizishni buyuradi. Bu ulkan suratlar g‘ildiraklarga o‘rnatilib, Syanfey yurti tasvirini jonlantirish uchun navbati bilan harakatlanar edi. Iparxon ertadan kechgacha shu manzaralarga boqib kunlarini o‘tkazadi. Biroq, imperator tomonidan qilingan bu kabi barcha mehnatlar zoye ketdi. Mag‘rur Qashqar qizi imperatorni yor sifatida qabul qilolmadi.

Iparxon Alisher Navoiy, Rahimbobo Mashrab, xojasi Jahonxo‘ja Arshiyning sara she‘rlarini to‘plab, o‘zi uchun majmua kitobat qilgan edi. Pekinga olib ketilayotganda doimiy yo‘ldoshi bo‘lgan o‘sha majmua qo‘lyozmasidan bo‘lak hech narsani o‘zi bilan olmadi. Bu bitik malikani so‘nggi kunlarga tark qilindi. Uning vafotidan so‘ng bu kitob Imperator tomonidan Iparxon uchun taom tayyorlashga tayinlangan uning qavmdoshi bo‘lgan usta Nurmuhammadga qoldi.

1781-yil 5-yanvar kuni Syanlun ziyofat chaqirib unda Nurmuhammadga mehmonlarni milliy taomlar

bilan siylashni buyuradi. Oshpaz ikki xil o‘zining milliy qaylasini tayyorlab, maqto‘v va mukofotga sazovor bo‘ladi. 1788-yili yanvar oyida bo‘lib o‘tgan ziyofatda malikalar o‘z oshpazlariga issiq ovqat tayyorlatishgan va Syanlunga tortiq qilishgan. Nurmuhammad imperatorning eng suygan taomi palov bilan qo‘y go‘shidan chuchvara tayyorlagan. Imperatorga aynan shu toklik taomlar yoqqan, u yana Nurmuhammadni mukofotlagan. Bu vaqtda esa Iparxon kasallanib to‘shakda yotgan edi.

Iparxonning Syanlunni o‘ldirishi haqidagi tahdidi turli gap-so‘zlar orqali imperatorning onasi Syao Shening qulog‘iga ham yetib boradi. Imperatorning safarga ketganligidan foydalangan Syao Shen Iparxonni qoshiga chaqirib nima xohlashini so‘raydi. Shunda u "o‘lishni", deya javob beradi...

Shu suhbatdan keyin Iparxonning sog‘ligi og‘irlashib, dardi kuchayib boradi. Onasi va Iparxon o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbatdan bexabar Syanlun shaxsan o‘zi bir necha marta uning holidan xabar olgan Iparxon yotog‘iga borar va turli tansiq mevalar bilan suyuksini siylardi. 1788-yil 15-aprel kuni imperator kasal yotgan Iparxonning yoniga kelib, uni apelsin bilan siylaydi, bu ularning so‘nggi uchrashuvi bo‘lgan.

Syanlun Iparxon uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan, uning barcha istaklarini bajo keltirgan bo‘lsa ham, Iparxon baribir imperator saroyida o‘zini juda g‘arib sezdi, yori Jahonxo‘ja yodi bilan umrini g‘am — anduhda o‘tkazdi. Sog‘inch adoyi tamom qilgan, siyrasiz suratga aylangan va begona muhitga ko‘nika olmagan Iparxon 1788-yili 19-aprel kuni vafot etadi. Imperatorning buyrug‘iga binoan u Qashqarga keltirib, Ofoqxo‘ja maqbarasiga dafn etishadi. Iparxonning jasadini olib kelgan taxti ravon hanuzgacha maqbaraga kirish joyining chap tarafida turibdi.

Iparxon vafoti Syanlunga qattiq ta‘sir qildi. U avvalgidek podshohlik ishlariga g‘ayrat va shiddat bilan yondashmay qo‘ydi. Yolg‘izlikni qo‘msay boshladi. Oxir-oqibatda, 1796-yili fevral oyida Syanlun taxtidan voz kechadi va umrining qolgan to‘rt yilini uzlatda o‘tkazadi.

Xitoyda Lan Shinin nomi bilan tanilgan biz keltirib o‘tganimiz, Milan farzandi, rassom Djuzeppe Kastilyone mo‘yqalamiga mansub bo‘lgan Iparxonning qiyofasi aks etgan suratlar hozirgacha saqlab qolingan. Bu tasvirlarda Iparxon ham oddiy ko‘rinishda, ham harbiylar kiyimida namoyon bo‘lgan. Ushbu suratlarining biri Londondagi Britaniya muzeyi ekspozitsiyasida joy olgan bo‘lib, uning go‘zalligi va tarixi Yevropalik muxlislarining cheksiz hurmati va e‘tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Erkin MUSURMONOV, SamDCHTI Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasa mudiri, professor



SAMARQAND



MUASSIS: Samarqand shahar hokimligi

Muharrir v.b: Olim SONNIBOYEV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 06.09.2012-yilda 09-05 raqami bilan qayta ro‘yxatga olingan. Indeks: 5505

Gazeta tahririyat matbaa bo‘limida terildi va sahifalandi. Tahririyat matbaa bo‘limi O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida 2.06.2017-yilda 18-3959 raqami bilan ro‘yxatga olingan.



MANZIL: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy.

TELEFONLAR: +998 66 233-58-40, +998 66 233-67-79.

Gazeta haftaning payshanba kuni chiqadi.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar muallifga qaytarilmaydi.

Sotuvda erkin narxda.

Navbatchi: Alisher ISROILOV

Sahifalovchi: Muhammaddiyor NARINOV

Bosishga topshirish vaqti: 21.00.

Bosishga topshirildi: 21.00.

Gazeta «Noshir Iyuk» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Buyurtma: 515 Adadi: 3 000 nusxa.